

---

**TEXNIK TADQIQOTLAR JURNALI**  
**ЖУРНАЛ ТЕХНИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**  
**JOURNAL OF TECHNICAL SCIENCE**

---

**АВТОМОБИЛ МУҲАНДИСЛИГИ / АВТОМОБИЛЬНАЯ ТЕХНИКА /**  
**AUTOMOBILE TECHNICS**

**Najmiddinov Asliddin Abduhakimovich,**

Termiz davlat universiteti talabasi,

**Xolov Alisher Faxriddin o'g'li,**

Termiz davlat universiteti

"Yer usti transport tizimlari" kafedrasida o'qituvchisi

**EKOLOGIYANI ZARARLI GAZLARDAN MUHOFAZA QILISH CHORA**  
**TADBIRLARI**



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-1-5>

---

**АННОТАЦИЯ**

Hozirda, transportdan chiqayotgan zararli gazlar bilan bog'liq muammo, butun dunyo olimlarining diqqat markazida bo'lgan va hal qilinishi kutilayotgan muammodir. XXI asrda ushbu muammoni yechimi sifatida elektromobillar ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan. Ammo, endigina omma e'tiborida tushib, keng tarqalib borayotgan elektromobillar, ichki yonuv dvigateliga asoslangan transportlar kabi butun yer yuzini keng qamrab olgunga qadar, ekologik tizim izdan chiqib bo'ladi. Shuning uchun, oz bo'lsada ekologik xavfli o'zgarishni muddatini uzaytirish o'ylaymizki maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tiboringizga taqdim etmoqchi bo'lgan havolalarimizdan maqsad ham aynan shunga asoslangan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, Transport, zaxarli gazlar, yoqilg'i, dvigatel, tejamkorlik, yoqilg'i sarfi, ekologik toza muhit.

---

**Нажмидинов Аслиддин Абдухакимович,**

студент Термезский государственный университет

**Холов Алишер Фахриддин угли,**

Преподаватель кафедры "Транспортные системы Земли"

Термезский государственный университет

**МЕРЫ ПО ЗАЩИТЕ ЭКОЛОГИИ ОТ ВРЕДНЫХ ГАЗОВ**

**АННОТАЦИЯ**

В настоящее время проблема сброса вредных газов находится в центре внимания ученых всего мира, и эта проблема должна быть решена. В 21 веке решением этой проблемы является производство электромобилей. Тем не менее, экологическая система разрушается перед публикой, как и широко распространенные электромобили и автомобили с двигателем внутреннего сгорания. Следовательно, было бы целесообразно продлить срок службы легка опасного изменения в меньшей степени. Цель наших ссылок - сделать это.

**Ключевое слово:** экология, транспорт, топливо, двигатель, строгость, расход топлива, экологически чистая среда.

№ 1/2019

**Najmiddinov Asliddin Abduhakimovich,**

student of Termiz state university

**Xolov Alisher Faxriddin o'gli,**

teacher of the department of

"Earth Transport Systems", Termez State University

## MEASURES TO PROTECT ECOLOGY FROM HARMFUL GASES

### ANNOTATION

Currently, the problem with the harmful gases emptying is the focus of the attention of the world's scientists and the problem that is to be resolved. In the 21st century, the solution of this problem is to produce electromobility. However, the ecological system is disrupted before the public, just like the widespread electromobility, and the internal combustion engine-driven vehicles. Therefore, it would be advisable to extend the life of a slightly hazardous change to a lesser extent. The purpose of our references is to do this.

**Key words:** ecology, vehicle, toxic gases, fuel, engine, economical, fuel consumption, ecologically clean environment.

**For citation:** Najmiddinov Asliddin Abduhakimovich, Xolov Alisher Faxriddin o'gli. Measures to protect ecology from harmful gases. International Journal of Technical Sciences. 2019, vol. 1, issue 6, pp. 31-33

**Kirish.** Bugungi kunda sanoat, texnika-texnologiya va transport sohalarining jadal rivojlanayotgani barchamizga ma'lum. Kundalik turmushimizni transportsiz tasavvur qilishimizning deyarli imkoni yo'q. Shu bilan bir qatorda ular beminnat yordamchimizga aylangani ayni haqiqatdir. Ammo ana shu "Yordamchilarimiz" tufayli atrof-muhit ekologiyasiga misli ko'rilmagan salbiy ta'sirlar ko'rsatilmoqda. Ya'ni, transportdan ajralib chiqayotgan zararli gazlar atrof-muhit ekologiyasini muntazam ravishda zaxarlab kelmoqda.

Atrof-muhitning haddan tashqari ifloslanishi oqibatida, millionlab insonlar yurak-qon tomir va o'pka raki kasalliklaridan aziyat chekmoqdalar. Doimiy ifloslangan havo bilan nafas olayotgan insonlarning juda oz qismi me'yordagi o'rta inson yoshiga yetib kelishmoqda.

Shu o'rinda sizda quyidagicha fikr paydo bo'lishi tabiiy, "Atrof-muhit ekologiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaslik uchun, transport harakatlarini butkul to'xtatib bo'lmaydi-ku".

Albatta, iqtisodiyotning rivojlanish yo'lida sanoat va transport harakatini to'xtatishning imkoni yo'q. Ammo transportdan to'g'ri va samarali foydalanish natijasida atrof-muhit ekologiyasiga ta'sir ko'rsatayotgan jiddiy omillarning keskin kamayishi bilan bir qatorda, shaxsiy transportingizdan uzoq muddat sifatli foydalanish imkoniga ega bo'lasiz. Hozirda e'tiboringizga havola qilmoqchi bo'lganlarimiz, asosan shaxsiy avtomobilingizdan foydalanish usullarini sizga tavsiya qilmoqchi bo'lgan usullarimiz bilan o'zgartirishingiz, avtomobilingizdan ajralib chiqayotgan zararli gazlarni keskin kamaytirishga olib keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladikki, avtomobil qanchalar ko'p yoqilg'i sarflasa, undan ajralib chiqayotgan zararli gazlar shuncha ko'p bo'lar ekan. Shuni hisobga olgan holda yoqilg'i sarfini tejash evaziga, atrof-muhit ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi zararli gazlarni kamaytirishga erishishimiz mumkin.

**Tahlil va natijalar:** Avtomobilingizni doimiy sozligini ta'minlang. Chunki, nosoz avtomobil o'zidan haddan tashqari ko'p zararli gazlar chiqaradi. Buning uchun avtomobilingizni doimiy kundalik texnik nazoratdan o'tkazib turish bilan bir qatorda,

muammosiz ishlashi uchun avtomobilga to'g'ri moy tanlay olish va uni tez-tez almashtirib turish talab etiladi. Eng asosiysi esa, yoqilg'ini avtomobil ishlab chiqaruvchisi tavsiya etgan turidan foydalanish kerak [2].

Transportni to'g'ri parvarishlash yoqilg'ini sezilarli darajada tejalişhini ta'minlaydi. Ya'ni bunga birgina havo filterini misol qilib keltirishimiz mumkin. Havo filterini haddan tashqari ifloslanishiga yo'l qo'ymang, chunki bu dvigatelni havo bilan ta'minlash tizimiga putur yetkazadi. Sizga ma'lumki yoqilg'i yonishi uchun kerakli havo bilan ta'minlanmaslik, yoqilg'i chala yonishiga sabab bo'ladi. Natijada bu yoqilg'i sarfini keskin oshishiga olib keladi [2].

Avtomobilingizdagi ortiqcha og'irlikni kamaytiring. Mashinangiz qancha og'ir bo'lsa dvigatelga shuncha ortiqcha bosim tushadi. Buning oqibatida dvigatel me'yorida ko'proq yoqilg'i sarflaydi. Ko'pgina avtomobil egalari buni tushunmaydilar, ular avtomobillariga ta'sir qilayotgan qo'shimcha bosimdan bexabardirlar. Ortiqcha og'irlikni kamaytirish uchun avtomobilingizdan zarur bo'lmagan narsalarni olib tashlang. Misol uchun, avtomobil tomigao'matilgan ship, bu mashinaaerodinamikasigaham ta'sir qiladi, ya'ni avtomobilning havo oqimiga qarshilik qiluvchi yuzasi katta bo'lsa, havoning qarshilik kuchini yengish uchun dvigateldan ko'proq kuch talab etadi. Bu esa ko'proq yoqilg'i sarflanadi degani [2].

Avtomobilingizni iloji boricha sovuqdan saqlang. Avtomobil sovuq iqlimda odatdagidan ko'ra ko'proq yoqilg'i sarflaydi. Sovuqda yoqilg'ining ortiqcha yo'qotilishiga yo'l qo'ymaslik uchun, avtomobilingizni iliqroq joyda saqlashga odatlaning [1].

Mashina shinalarining bosimi doimiy kerakli miqdorda bo'lishini ta'minlang. Sababi, shina bosimining me'yorida kamayishi avtomobilning harakatlanishi uchun dvigateldan me'yorida ko'proq kuch talab etadi. Bu esa o'z-o'zidan ma'lumki, yana yoqilg'i sarfi ortishiga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda qo'shimcha jihozlarni faqat zarurat tug'ilgandagina ishlatish maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki sovutish, isitish va boshqa qurilmalar ham ko'p energiya sarf bo'lishiga olib keladi [1]. Biroz e'tiborli bo'lib derazalarni ochiq qoldirmaslikga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sovutish qurilmalaridan doimgidan ko'ra unumliroq foydalanish imkoni mavjud.

**Xulosa va takliflar:** Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tavsiyalar ko'rib turganingizdek juda oddiy. Sizdan hayotingizni tubdan o'zgartirishingizni talab qilmaydi. Balki, bular sizga juda mayda natijalarga erishishdek tuyilar, ammo bu ishlar samarasi sizning tasavvuringizdan ancha balandroqda. Bu bilan siz avtomobilingiz xizmat ko'rsatish muddatini oshirish va yoqilg'i sarfi bo'yicha ma'lum tejamkorlikga erishgan holda, ham naqdingizni ham vaqtingizni tejagan bo'lasiz va eng asosiysi kelajak avlodga toza ekologik muhit yetkazib berishga o'zingizning ozgina hissangizni qo'shgan bo'lasiz.

Agar, har birimiz mana shunday oddiy o'zgarishlarni amalga oshiradigan bo'lsak, biz sayyoramiz kelgusi avlodlar yashashi uchun xavfsiz va sog'lom joy bo'lishiga kafolat bera olamiz. Atrof-muhit sofligiga barchamiz birdek ma'sulmiz. Bizdan keyingi kelajak avlod ham beg'ubor tabiatdan bahra olishga haqli.

#### Adabiyotlar ro'yhati:

- 
1. [www.businessfleet.com](http://www.businessfleet.com)
  2. [www.totalcardiagnostics.com](http://www.totalcardiagnostics.com)